

MINTAQALAR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI NOMUTANOSIBLIKARNI BARTARAF ETISHDA QO‘LLANILADIGAN USULLAR VA ULARGA XOS FUNKSIYALAR

Ismoilov Alisher Jobir o‘g‘li

Namangan davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

e-mail: presentutor@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni kamaytirishda qo‘llaniladigan usullar va ularning asosiy funksiyalari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida hududiy nomutanosibliklarni aniqlash, baholash va davlat siyosati orqali tartibga solish usullarining samaradorligi baholangan. Shuningdek, hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni bartaraf etishda klaster yondashuvi, o‘sish qutblari, davlat-xususiy sheriklik, innovatsion va raqamli transformatsiya modellaridan foydalanish imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida mintaqalararo rivojlanishdagi nomutanosibliklarni samarali kamaytirishga yo‘naltirilgan amaliy tavsiyalar shakllantirilgan. Maqola ilmiy tadqiqotchilar, iqtisodiyot sohasi mutaxassisleri va davlat boshqaruvi organlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, hududiy iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishda qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: mintaqaviy nomutanosiblik, o‘sish qutblari, klasterlash, davlat-xususiy sheriklik, raqamli transformatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, innovatsion iqtisodiyot, hududiy integratsiya, infratuzilma loyihalari, hududiy siyosat, indikativ rejalashtirish, hududiy modellashtirish.

KIRISH

Bugungi kunda hududlar rivojlanishidagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish mamlakatning barqaror rivojlanishida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, O‘zbekistonda ham mazkur masala davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Mintaqalar rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy tenglik va barqarorlik nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham hududlararo nomutanosibliklarni kamaytirish usullarining samaradorligini ko‘rsatmoqda. Masalan, Jahon bankining "World Development Report: Reshaping Economic Geography" hisobotida hududlar o‘rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirish uchun infratuzilmani rivojlantirish, integratsiya va transport bog‘liqligini oshirish zarurligi ta’kidlangan [1]. Shuningdek, BMTTD hisobotlarida raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy qilish orqali mintaqaviy rivojlanishni tenglashtirish mumkinligi qayd etilgan [2].

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar, xususan, “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmon hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish haqidagi qarorlar bunga misol bo‘la oladi. Ushbu hujjatlarda har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda

rivojlantirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va hududlarda investitsiyalarni jalb qilish vazifalari belgilab berilgan [3].

Mazkur xalqaro tajribalar va tavsiyalar O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda hududiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha davlat siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, bugungi kun sharoitida hududiy rivojlanishda raqamli transformatsiya, davlat-xususiy sheriklik, innovatsion klasterlar kabi zamonaviy usullar keng qo'llanilmoqda. Mazkur usullar samaradorligini oshirish va ularni yanada rivojlantirish zarurati mavjudligi sababli, ilmiy va amaliy jihatdan ularni chuqur tahlil qilish va qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish muammosi iqtisodiy fanlarda keng ko'rib chiqilgan mavzulardan biri bo'lib, ushbu yo'nalishda xalqaro va mintaqaviy tadqiqotchilar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar taklif etilgan.

Nobel mukofoti laureati Pol Krugman tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy geografiya nazariyasida hududlararo nomutanosibliklarni kamaytirish uchun sanoat klasterlari va iqtisodiy aglomeratsiyalarni shakllantirish taklif etiladi. Krugmanning fikricha, hududlarning iqtisodiy o'zaro bog'liqligi va ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiyasi iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni samarali ravishda kamaytirish imkonini beradi [4].

Regional iqtisodiyotning ilmiy asoslarini ishlab chiqishda Valter Isardning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, u mintaqaviy iqtisodiyotni matematik va statistik modellash orqali boshqarish mumkinligini isbotlaydi. Isardning yondashuvi iqtisodiy siyosat va indikativ rejalashtirishni hududlararo farqlarni kamaytirish uchun samarali vosita sifatida ko'rsatadi [5].

Iqtisodiy o'sish va mintaqalararo tenglashtirish muammosini tadqiq qilgan Xaviyer Sala-i-Martin mintaqalar iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni inson kapitalini rivojlantirish orqali qisqartirish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlari inson kapitaliga investitsiyalar mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'sishni va barqaror rivojlanishni ta'minlovchi asosiy omil ekanligini ko'rsatadi [6].

Janubiy Koreyalik iqtisodchi Byong Vu Li innovatsion faoliyat va texnologiyalar transferi hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etishini isbotlagan. Uning fikriga ko'ra, ilg'or texnologiyalarni samarali qo'llash orqali iqtisodiy farqlarni kamaytirish va hududlarning iqtisodiy rivojlanishini muvozanatli tarzda ta'minlash mumkin [7].

Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi tadqiqotlar ham mintaqalararo nomutanosibliklarni bartaraf etish borasida muhim ilmiy asoslarni shakllantirgan. Xususan, Qozog'istonlik iqtisodchi A. Yesenbayev davlat iqtisodiy siyosatida subsidiyalar mexanizmi va qo'llab-quvvatlash dasturlarini samarali amalga oshirish orqali hududiy iqtisodiy farqlarni kamaytirish mumkinligini ilmiy asoslab beradi [8].

Qirg'iziston iqtisodchisi J. Bakasov kichik va o'rta biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish orqali hududlar iqtisodiyotidagi

nomutanosibliklarni samarali ravishda kamaytirishni taklif qiladi va bu yondashuvning iqtisodiy samaradorligini isbotlaydi [9].

Tojikistonlik iqtisodchi A.S. Rahmonov o'z ilmiy ishlarida transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali mintaqalar iqtisodiy integratsiyasini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, infratuzilma rivojlanishi hududlarning iqtisodiy aloqalarini mustahkamlab, hududlararo rivojlanishdagi nomutanosibliklarni kamaytirishga yordam beradi [10].

O'zbekiston iqtisodchisi N.Q. Mahmudova tomonidan davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan infratuzilma loyihalari orqali hududlararo iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish imkoniyatlari chuqur tahlil etilgan. Mahmudovaning tadqiqotlari davlat va xususiy sektorning birgalikdagi investitsion loyihalari hududlarning muvozanatli rivojlanishini ta'minlashda samarali ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi [11].

B. Mullabayevning fikriga ko'ra hududiy nomutanosibliklarning kelib chiqish sabablari, ularni kamaytirish mexanizmlari va ilmiy asoslangan yondashuvlar keng tahlil qilinadi. Muallif ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarining hududlararo farqlarni bartaraf etishdagi rolga alohida e'tibor qaratib, ushbu sohalaridagi nomutanosibliklar mintaqaviy iqtisodiy tengsizlikning asosiy omillaridan biri ekanini asoslaydi [12].

Ilmiy tadqiqotlarda mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni kamaytirishning samarali usullari sifatida sanoat klasterlari, iqtisodiy aglomeratsiyalar, matematik va statistik modellashtirish, inson kapitaliga investitsiyalar, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, infratuzilma loyihalari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslangan va keng qo'llanilayotganligi kuzatilmoqda.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni kamaytirishda samarali vositalar sifatida sanoat klasterlarini shakllantirish, iqtisodiy aglomeratsiyalarni rivojlantirish, matematik va statistik modellashtirish usullarini qo'llash, inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarni amalga oshirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, infratuzilma loyihalarini takomillashtirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish keng e'tirof etilganligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqotimizda yuqorida sanab o'tilgan usullar samaradorligini Namangan viloyati misolida amaliy jihatdan baholash hamda ushbu hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etishga qaratilgan innovatsion modellarni ishlab chiqishga yo'naltiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida kompleks tizimli yondashuv qo'llanilgan bo'lib, bu orqali hududiy nomutanosibliklarning sabablari va ularni bartaraf etish imkoniyatlari har tomonlama tahlil qilindi. Ushbu metodologiya quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Ilmiy-nazariy asoslarni chuqur tahlil qilish orqali mavzuga oid mavjud adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlar o'rganildi; hududlarning rivojlanish ko'rsatkichlari statistik usulda tahlil qilindi, bunda iqtisodiy, ijtimoiy va demografik ma'lumotlardan

keng foydalanildi; komparativ tahlil usuli yordamida rivojlangan va rivojlanmagan hududlar orasidagi asosiy farqlar aniqlandi, shuningdek, xalqaro tajribalar va mahalliy amaliyotlar solishtirildi; Induktiv-deduktiv usullar orqali nomutanosibliklarni bartaraf etishda samarali bo'lgan usullar va vositalar aniqlanib, ularning afzalliklari va kamchiliklari baholandi; kognitiv va tizimli modellashirish orqali nomutanosibliklarni boshqarishning samarali mexanizmlari ishlab chiqildi, bu esa muammolarga tizimli yechim topishga yordam beradi; ekspert baholash usuli orqali ishlab chiqilgan modellar va strategiyalarning samaradorligi baholandi va ularning amaliyotga tatbiq etilishi yuzasidan takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo'limda Namangan viloyati va uning tumanlari misolida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni baholash, ularni kamaytirishga qaratilgan usullar samaradorligini tahlil qilish hamda 2020-2025 yillar oralig'idagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi ilmiy jihatdan keng ko'rib chiqiladi

1-jadval.

Namangan viloyati tumanlarida yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmi (mlrd.so'm)

Tumanlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025 (prognoz)
Namangan shahri	12,5	13,7	15,0	16,3	17,9	19,5
Chortoq tumani	8,2	8,7	9,3	10,1	10,9	11,7
Chust tumani	9,0	9,6	10,2	11,0	11,8	12,6
Pop tumani	7,4	8,1	8,8	9,5	10,2	11,0
Kosonsoy tumani	6,8	7,3	7,9	8,6	9,3	10,1

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi, 2024.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2020-2025 yillar oralig'ida barcha tumanlarda YAHM o'sishi kuzatilmoqda. Bu holat hududlarda iqtisodiy faollikning yaxshilanayotganligini ko'rsatadi. Ammo Namangan shahri va Chust tumani yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Pop va Kosonsoy tumanlaridagi iqtisodiy o'sish sur'atlari nisbatan pastligi hududiy nomutanosiblikning mavjudligini anglatadi va ushbu nomutanosiblikni qisqartirish uchun hududiy integratsiya va ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqilishi zarur.

2-jadval.

Namangan viloyati tumanlarida aholi jon boshiga investitsiyalar (mln.so'm)

Tumanlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025 (prognoz)
Namangan shahri	4,5	5,0	5,7	6,3	7,0	7,8
Chortoq tumani	3,2	3,5	4,0	4,4	4,9	5,4
Chust tumani	3,8	4,2	4,7	5,2	5,7	6,3
Pop tumani	2,9	3,3	3,8	4,2	4,7	5,2
Kosonsoy tumani	2,7	3,0	3,4	3,8	4,3	4,8

Manba: Namangan viloyati investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi, 2024.

Investitsiyalar tahlili natijalariga ko'ra, investitsiyalar hajmida sezilarli farqlar mavjud. Namangan shahri aholisi jon boshiga investitsiyalar bo'yicha yetakchi bo'lib, hududdagi investitsion muhitning rivojlanganligini ko'rsatadi. Ammo Kosonsoy va Pop tumanlaridagi past ko'rsatkichlar mintaqalararo iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni kuchaytirishi mumkin. Bu vaziyatdan chiqish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma loyihalari va kichik biznesni rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadli investitsion siyosat zarur.

3-jadval.

Namangan viloyatida ish bilan bandlik darajasi (%)

Tumanlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025 (prognoz)
Namangan shahri	92,3	93,1	93,8	94,5	95,2	95,8
Chortoq tumani	87,6	88,5	89,3	90,1	90,8	91,5
Chust tumani	89,0	89,7	90,5	91,2	92,0	92,7
Pop tumani	85,5	86,3	87,2	88,1	88,9	89,7
Kosonsoy tumani	84,7	85,5	86,4	87,2	88,1	89,0

Manba: Namangan viloyati mehnat boshqarmasi, 2024.

Bandlik ko'rsatkichlari tahlili hududlararo ijtimoiy farqlar mavjudligini tasdiqlamoqda. Shaharlashgan hududlarda ish bilan bandlik yuqori darajada saqlanmoqda, ammo qishloq tumanlaridagi nisbatan past bandlik darajasi muammo hisoblanadi. Ushbu nomutanosibliklarni kamaytirish uchun qishloq hududlarida kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish hamda mehnat resurslarini hududiy qayta taqsimlash siyosatini amalga oshirish lozim.

Jadval 4.

Namangan viloyatida innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari (innovatsion korxonalar soni)

Tumanlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025 (prognoz)
Namangan shahri	32	36	40	45	50	56
Chortoq tumani	15	17	19	21	23	25
Chust tumani	18	20	23	26	29	33
Pop tumani	10	12	14	16	18	20
Kosonsoy tumani	9	11	13	15	17	19

Manba: Namangan viloyati innovatsion rivojlanish agentligi, 2024.

Innovatsion rivojlanish darajasida ham tumanlararo farqlar mavjud. Innovatsion korxonalar sonining ko'payishi faqat Namangan shahri va Chust tumani bilan chegaralangan holda qolmoqda. Bu nomutanosiblikni bartaraf etish uchun innovatsion tadbirkorlikka kengroq qo'llab-quvvatlash ko'rsatish va innovatsiyalarni hududiy integratsiya orqali tarqatishni ta'minlash zarur.

Namangan viloyati tumanlarining 2020-2025 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, viloyatda hududlararo

rivojlanish nomutanosibliklari sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. Namangan shahri va Chust tumani yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlar, investitsiya oqimlari, bandlik darajasi va innovatsion faoliyat jihatidan yetakchilik qilayotgan bo'lsa, Pop va Kosonsoy tumanlari bu ko'rsatkichlarda orqada qolmoqda.

Hududlararo mavjud nomutanosibliklarni kamaytirish uchun davlat tomonidan hududiy iqtisodiy siyosatni yanada takomillashtirish, investitsiyalarni teng taqsimlash mexanizmlarini ishlab chiqish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, innovatsion va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish hamda bandlikni oshirish dasturlarini joriy qilish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi ilmiy tadqiqot va viloyat ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat natijalaridan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

Birinchidan, Namangan viloyatining tumanlari va shaharlari iqtisodiy rivojlanish, investitsiya kiritish, aholi bandligi va innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli farqlarga ega bo'lib, bu viloyatning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Nomutanosiblikning mavjudligi ayniqsa shaharlashgan va qishloq tumanlari o'rtasidagi rivojlanish farqlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Ikkinchidan, Namangan shahri va Chust tumani iqtisodiy salohiyati yuqori hududlar sifatida viloyatning rivojlanish jarayonida yetakchilikni egallamoqda. Ushbu hududlarning yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlari investitsiya jalb qilish, ish o'rinlarini yaratish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish jihatidan boshqa hududlarga namuna sifatida xizmat qilishi mumkin.

Uchinchidan, Pop va Kosonsoy tumanlari iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan viloyatdagi boshqa tumanlardan sezilarli ravishda orqada qolmoqda. Bu hududlardagi past ko'rsatkichlar viloyatning umumiy iqtisodiy rivojlanishini sekinlashtirmoqda va bu holat hududlararo rivojlanishni muvozanatlashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, investitsiya oqimlarining notekis taqsimlanishi hududlarning iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida baholandi. Shu sababli, investitsiyalarni teng va adolatli taqsimlash uchun samarali mexanizmlar ishlab chiqilishi talab etiladi.

Tadqiqot natijalariga asosan, viloyatda hududlararo iqtisodiy va ijtimoiy nomutanosibliklarni kamaytirish hamda umumiy barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Davlat-xususiy sheriklik asosida kichik va o'rta biznesning rivojlanishini rag'batlantirish uchun, ayniqsa qishloq hududlarida maxsus qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish zarur. Bunda moliyaviy va institutsional yordamni kuchaytirish va yangi biznes loyihalariga imtiyozli kreditlar ajratish tizimini takomillashtirish talab qilinadi.

Viloyatdagi nomutanosibliklarni kamaytirish maqsadida innovatsion va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun maxsus mintaqaviy dasturlar ishlab chiqilishi kerak. Ushbu dasturlarda hududlararo integratsiyani kuchaytiruvchi klasterli yondashuv va texnologik transfer mexanizmlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bandlik muammosini hal etish uchun qishloq joylarida kasb-hunar ta'limi tizimini rivojlantirish hamda aholini mehnat bozoriga moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi. Mehnat resurslarini hududlararo qayta taqsimlash mexanizmlari ishlab chiqilib, yangi ish o'rinlarini yaratish uchun hududiy rivojlanish dasturlariga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Hududlararo iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish uchun mintaqaviy iqtisodiy siyosatni yanada takomillashtirish va viloyat iqtisodiyotida mavjud nomutanosibliklarni bartaraf etish uchun maxsus indikativ rejalashtirish va monitoring tizimini joriy etish tavsiya qilinadi. Bu bilan iqtisodiy o'sishning muvozanatli va barqaror bo'lishini ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jahon banki. World Development Report 2009: Reshaping Economic Geography. – World Bank, Washington, D.C.,
2. UNDP (BMTTD). Human Development Reports. – United Nations Development Programme, New York, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni
4. Krugman P. Geography and Trade. – MIT Press, 1991.
5. Isard W. Methods of Regional Analysis: An Introduction to Regional Science. – MIT Press, 1960.
6. Sala-i-Martin X. Regional Cohesion: Evidence and Theories of Regional Growth and Convergence. – European Economic Review, 1996.
7. Lee B.V. Regional Development Strategies and Technological Innovations: South Korean Experience. – Seoul: Korea Development Institute, 2010.
8. Есенбаев А. Региональная экономика Казахстана: Теория и практика. – Алматы: Қазақ университеті, 2014.
9. Бакасов Ж. Региональное развитие и малое предпринимательство в Кыргызстане. – Бишкек: Кыргызский государственный университет, 2015.
10. Рахмонов А.С. Инфраструктурные проекты и региональное развитие Таджикистана. – Душанбе: Академия наук Республики Таджикистан, 2017.
11. Mahmudova N.Q. Public-Private Partnerships in Infrastructure Development as a Tool to Reduce Regional Disparities in Uzbekistan. – Tashkent: Uzbek Economic Review, 2021.
12. Mullabayev, B. O'zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ilmiy yondashuvlar. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2023.